

**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA TARBIIYASHI VA OTA-ONA
HAMKORLIGINI TASHKIL ETISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK
XUSUSIYATLARI**

Tog'ayeva Shaxnoza Shavkatovna

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti 1-bosqich magistranti, Toshkent shahar, Chilonzor tumani, 585-DMTT direktori

Annotatsiya

Ushbu maqola maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyachi va ota-onalar o'rtasidagi hamkorlikning pedagogik-psixologik xususiyatlarini tahlil qiladi. Tadqiqotda bolaning ijtimoiy, emotsional va kognitiv rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omillar, ota-onalarning tarbiyadagi roli va maktabgacha ta'lim tashkilotlari bilan samarali hamkorlik mexanizmlari yoritilgan. Shuningdek, ilmiy manbalar va tarixiy tajribalar asosida ota-onalar va pedagoglar o'rtasidagi munosabatlarning ochiqlik, ishonch va hamkorlik asosida shakllanishi, bolaning umumiy rivojlanishi va ta'lim sifatini oshirishda ahamiyati ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, tarbiyachi va ota-ona hamkorligi, pedagogik-psixologik xususiyatlar, bolaning rivojlanishi, ijtimoiy va emotsional barqarorlik.

Abstract

This article analyzes the pedagogical and psychological characteristics of cooperation between educators and parents in preschool institutions. The study highlights factors influencing a child's social, emotional, and cognitive development, the role of parents in upbringing, and effective collaboration mechanisms with preschool institutions. Drawing on scientific literature and historical experience, the article emphasizes that relationships between educators and parents should be based on openness, trust, and cooperation, which are crucial for the child's overall development and the quality of education.

Keywords: preschool education, educator-parent cooperation, pedagogical-psychological characteristics, child development, social and emotional stability.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyachi va ota-onalar o'rtasida samarali hamkorlikni ta'minlash bolaning umumiy rivojlanishi va ta'lim sifatini oshirishda asosiy ahamiyatga ega. Pedagogik ilmiy adabiyotlarda hamkorlik tushunchasi bolaning ijtimoiy, emotsional va kognitiv rivojlanishi jarayonida ota-onalar va pedagoglar o'rtasidagi uzluksiz kommunikatsiya va o'zaro hamkorlikni anglatishi qayd etilgan [1, 2].

Ota-onalar bilan hamkorlikning pedagogik-psixologik xususiyatlari bir qator ilmiy prinsiplar asosida tahlil qilinadi. Avvalo, hamkorlik jarayonida psixologiya fanlari tomonidan ta'kidlanishicha, bolaning rivojlanish bosqichlari, individual xususiyatlari va oiladagi ta'lim muhiti hisobga olinishi zarur [3]. Shuningdek, tarbiyachi va ota-onalar o'rtasidagi munosabatlar ochiqlik, ishonch va o'zaro hurmat asosida shakllanishi kerak, chunki bu bolaning ijtimoiy va emotsional barqarorligiga ta'sir ko'rsatadi [4].

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ota-onalar bilan pedagogik hamkorlikning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat: tarbiyaviy maqsadlarni aniqlash, bolaning individual ehtiyojlari va qobiliyatlarini baholash, ta'lim jarayonida ota-onalar ishtirokini rag'batlantirish va ma'lumotlarni muntazam almashish [5]. Shu bilan birga, ilmiy tahlillar shuni ko'rsatadiki, tarbiyachi va ota-onalar o'rtasidagi hamkorlik bolaning ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirish, qiyin vaziyatlarda qaror qabul

qilish qobiliyatini oshirish va tarbiya jarayonida pedagogik natijalarga erishishda samarali bo'ladi [6].

Mamlakatimizda maktabgacha ta'limni shakllantirish bo'yicha olib borilayotgan islohotlar tub zamirida yosh avlodni tarbiyalashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Chunki, maktabgacha bolalik davri – bu bolaning shakllanishidagi o'ziga xos davr bo'lib, unda bolalar o'zining ishki ruhiy jarayoni va xatti-harakatlarining tartibga solinishini nazorat qiladi va bola o'z faoliyati mohiyatini anglay boshlaydi.

Ma'lumki, bola hayotida ota-onalar, buva va buvilar, aka va ukalar, ora va singillar ilk pedagoglardir. Ular farzand dunyoga kelishi bilan va undan ham avvalroq bola shaxsining jismoniy, ma'naviy-axloqiy, aqliy va intellektual shakllanishiga asos soladilar. Maktabgacha ta'lim sohasida qo'lga kiritilgan natijalarga muvofiq davlat tomonidan oilaviy ta'lim va tarbiyaning ustuvorligini tan olinishi o'zaro munosabatlar va maktabgacha ta'lim tashkiloti bilan samarali o'zaro hamkorlik, o'zaro ta'sir va jamoaviy ishonch bildirishni talab qiladi.

Hamkorlik – bu teng asosda kommunikatsion muloqot, bunda hech kim ko'rsatish, nazorat qilish, baholash va diagnostikalash imtiyoziga ega yemas. O'zaro ta'sir, hamkorlikda – muloqot madaniyati orqali faoliyatni birgalikda amalga oshirish usulini ifodalaydi. Maktabgacha ta'lim tashkiloti va oila bolada mas'uliyat hissini tarkib toptirish uchun yagona shaxsiy va jamoaviy makon yaratishga intilishi kerak.

Maktabgacha ta'limni shakllantirishning zamonaviy tendensiyalari bir muhim va ahamiyatli boshqariluvchi mezon bilan birlashtirilgan – bu sifatdir, u pedagoglarning kasbiy kompetentligi darajasi va ota-onalarning pedagogik madaniyatiga bevosita bog'liq. Tarbiyalanuvchilar ta'lim va tarbiyaning yuqori sifatiga, ota-onalar talablari va bolalar qiziqishlari va motivlarini to'la qondirishga, bola uchun yagona ta'lim makonini yaratishga faqat maktabgacha ta'lim tashkiloti va oila hamkorligining yangi tizimini yo'l xaritasiga binoan ishlab chiqish sharti bilan erishish mumkin.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti va oilaning o'zaro ta'siri muammosi oxirgi vaqtda yeng dolzarb muammolar qatoriga kirgan. O'zgargan zamonaviy oila, moliyaviy va ijtimoiy-madaniy tabaqalanish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarning ko'rliigi, ta'lim va tarbiya olishning keng imkoniyatlari o'zaro ta'sirning yangi shakllarini izlab topish zaruriyatini vujudga keltiradi. Ota-onalar maktabgacha ta'lim tashkiloti – bola ta'lim va tarbiyasida faqat yordamchi ekanligini, shuning uchun ular butun mas'uliyat hissini tarbiyachi-pedagoglar zimmasiga yuklatishlari va ta'lim-tarbiya jarayonidan chetlashishlari mumkin yemasligini aslo unutmasliklari kerak.

Sharq va G'arbda keng tanilib "Shayx ur-ra'is" nomiga sazovor bo'lgan Abu Ali Ibn Sinoning (980-1037) "Tib qonunlari" va "Tadbiri manzil" asarlarida oila, ota-ona hamda bola munosabatlariga oid pedagogik va psixologik qarashlari bayon yetilgan. Uning oilani shaxslar-aro munosabatlar manbai, o'zaro ta'sir o'tkazishning qulay ijtimoiy-madaniy muhiti, milliy an'analar ta'sirchanligi, taqlid, yuqish fenomenlari negizi ekanligi to'g'risidagi mulohazalari to'g'risida hozirgi davrgacha o'z kishini yo'qotgani yo'q. U bola tarbiyasida ota-onalarning umuminsoniylik tamoyillariga amal qilishlarini ta'kidlaydi. Tarbiyachi, ota-onalarga uni qattiq tana jazosidan farqli o'laroq, shaxsiy ibrat orqali tarbiyalash ma'qulligini uqtirgan. Ibn Sino oila boshlig'i oldiga katta talablar qo'yadi, farzandlarni bir-biriga nisbatan mehr-oqibat tuyg'usi orqali tarbiyalash, iliq ruhiy muhitni yaratishni uqtiradi. Oiladagi noxush tarbiya faqat shu oilagagina salbiy ta'sir qilib qolmasdan, balki boshqa oilalarga ham xuddi shunday ta'sir qilishini oqilona tarbiya oila baxtining muhim asosi ekanligini ta'kidlaydi. Ibn Sino bola yomon xarakter xislatning egallashini kutmasdan turib, uni ijobiy fazilatlar bilan tanishtirib, bolaga yaxshi odobni singdirish kerak, — deb yozadi. Uning ta'kidlashicha, sharoit (muhit) qanday bo'lishidan qat'iy nazar, farzand kamoloti ota-onalarning asosiy vazifasidir, ular davlat boshlig'imi

yoki jamiyatning oddiy bir a'zosimi, bari bir tarbiya masalasida ular uchun bir xil talab qo'yilishi kerak, chunki bu ijtimoiy-madaniy ehtiyojdir.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti va oila o'rtasidagi hamkorlik munosabatlari g'oyasi bir qator me'yoriy-huquqiy hujjatlarda aks yetgan. Bugungi kunda bu muammo pedagoglar, ilmiy tadqiqotchilar, psixologlar, ota-onalar, sotsiologlar tomonidan muhokama qilinmoqda. Amaliyot va ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ota-onalar bolalarni tarbiyalashda qiyinchiliklarga dush kelishadi, bu bir qancha sabablar bilan izohlanadi:

bolalar sog'lig'ining aqliy, jismoniy jihatdan yomonlashishi;

ijtimoiy-madaniy himoyalangan ota-onalar va bolalar foizining ko'payishiga olib keladigan jamiyatning ijtimoiy-madaniy-iqtisodiy muammolari, ijtimoiy-madaniy-psixologik tashvish, charchoq, moddiy jihatdan kam ta'minlanganlik, oilani temir daftarda qayd yetilganlik, moddiy va iqtisodiy funksiyalarni oila ishida qayta taqsimlash, inqirozlar fonida oilaviy hayotni tashkil yetishdagi qiyinchiliklar; ota-onalarning shaxsiy muammolari: charchoq, kasallik, ruhiy va jismoniy stress, hayot xavfsizligining pasayishi tufayli tashvishlanish, boshqalarga qaramlik, yolg'izlik tuyg'usining kuchayishi (ayniqsa, to'liq bo'lmagan oilalarda), o'zaro tushunishning yetishmasligi va boshqalar.

Shu bois, so'nggi yillarda oila va maktabgacha ta'lim tashkiloti o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning yangi falsafasi ishlab chiqila boshlandi. Bu ota-onalar farzand ta'lim olishi va ta'lim-tarbiyasi uchun javobgardir, qolgan barcha ijtimoiy-madaniy institutlar yesa ularning tarbiyaviy faoliyatini qo'llab-quvvatlashga va to'ldirishga chaqiriladi degan fikrga asoslanadi. Shunga muvofiq, maktabgacha ta'lim tashkilotining oila bilan ishlashdagi pozitsiyasi o'zgarib bormoqda. Har bir maktabgacha ta'lim tashkiloti nafaqat bolani tarbiyalaydi, balki ota-onalarga bolalarni tarbiyalash bo'yicha maslahat beradi. Pedagog nafaqat bolalar tarbiyachisi, balki ularni tarbiyalashda ota-onaning hamkori hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Zunnunov A. Pedagogika tarixi. Toshkent: Oliy o'quv yurtlari uchun darslik, 2004. – 335 b.
2. Ilkhomov B., Karimova N. Maktabgacha ta'limda oila bilan hamkorlikning pedagogik-psixologik asoslari. – Toshkent: Fan, 2018. – 212 b.
3. Islomov S., Raxmonova M. Bolalar tarbiyasi va ota-ona ishtiroki: ilmiy tadqiqotlar. – Toshkent: Universitet nashriyoti, 2016. – 187 b.
4. G'anieva D., Yusupov R. Maktabgacha ta'limda tarbiyachilar va ota-onalar o'rtasidagi kommunikatsiya. – Toshkent: Pedagogika, 2019. – 143 b.
5. Abdurahmonov F. Pedagogik psixologiya: ilmiy qo'llanma. Toshkent: Ta'lim, 2020 – 256 b.
6. UNESCO. Early Childhood Care and Education. – Paris: UNESCO, 2017. – 98 p.
7. Epstein J. L. School, Family, and Community Partnerships: Preparing Educators and Improving Schools. – Boulder, CO: Westview Press, 2011. – 320 p.
8. Bronfenbrenner U. The Ecology of Human Development. – Cambridge: Harvard University Press, 1979. – 330 p.
9. Abdullayeva N.Sh. Significance of health-saving technologies in a Preschool educational organization// Abstracts of V International Scientific and Practical Conference, Osaka, Japan 29-31 January 2020, 14-16 bet